

ELEKTRON TIJORATDA ISTE'MOLCHILAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH: WILDBERRIES, UZUM MARKET VA XALQARO PLATFORMALAR MISOLIDA

Jur'atbek Mansurbek o'g'li OLLABERGANOV

talaba

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

Urganch, O'zbekiston

ollaberganovjuratbek706@gmail.com

Orcid id 0009 0006 3419 4562

Annotatsiya

Maqolada raqamli iqtisodiyotda onlayn marketplace operatorlari javobgarlik chegarasini belgilash muammosi tahlil qilingan. Amazon, Wildberries va Uzum Market platformalarining risk-menejment va huquqiy modellari misolida iste'molchilar huquqlarini himoya qilish masalalari qiyosiy o'rganilgan. Tadqiqotda UNCITRAL model qonunlari, YEI Digital Services Act normalari hamda O'zbekiston qonunchilik bazasi qiyoslangan. Tahlil asosida milliy qonunchilikda operatorlarning solidar javobgarligi institutini va onlayn nizolarni majburiy hal qilish tizimlarini joriy etish bo'yicha imperativ normalar ishlab chiqilgan.

Tayanch so'zlar: elektron tijorat, iste'molchi huquqlari, platforma javobgarligi, risk-menejment, Uzum Market, Wildberries, Amazon, ODR, kontrafakt, solidar javobgarlik, raqamli asimetriya.

ЗАЩИТА ПРАВ ПОТРЕБИТЕЛЕЙ В ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ: НА ПРИМЕРЕ WILDBERRIES, UZUM MARKET И МЕЖДУНАРОДНЫХ ПЛАТФОРМ

Журатбек Мансурбек угли ОЛЛАБЕРГАНОВ

студент

Ургенчский государственный университет имени Абу Райхона Беруни

Ургенч, Узбекистан

Аннотация

В статье анализируются проблемы законодательного определения пределов ответственности операторов онлайн-маркетплейсов в условиях цифровой экономики. На примере риск-менеджмента и правовых моделей платформ Amazon, Wildberries и Uzum Market сравнительно изучены вопросы защиты прав потребителей. В исследовании сопоставляются модельные законы ЮНСИТРАЛ, нормы Закона ЕС о цифровых услугах (DSA) и законодательство Узбекистана. По результатам анализа разработаны императивные нормы по внедрению в национальное законодательство института солидарной ответственности операторов и систем обязательного онлайн-урегулирования споров.

Ключевые слова: электронная коммерция, права потребителей, ответственность платформ, риск-менеджмент, Uzum Market, Wildberries, Amazon, ODR, контрафакт, солидарная ответственность, цифровая асимметрия.

Bugungi kunda transchegaraviy va milliy raqamli platformalar global iqtisodiyot arxitekturasini tubdan o'zgartirdi. 2024-yilda elektron tijorat aylanmasi jahon miqyosida 6,3 trillion dollarni tashkil etgan bo'lsa, O'zbekistonda ham Uzum Market va Wildberries kabi tizimlar iste'mol bozorining asosiy drayveriga aylandi. Biroq, ushbu dinamik o'sish huquqiy tartibga solish mexanizmlarining yetishmasligi oqibatida tizimli risklarni yuzaga keltirmoqda. Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasining statistikasiga ko'ra, "elektron tijorat sohasida iste'molchilar tomonidan yo'llanayotgan shikoyat va arizalar hajmi keyingi uch yillik kesimda 4 baravarga ko'paygan" [5]. Bu murojaatlarning asosini kontrafakt mahsulotlar, qaytarish mexanizmining murakkabligi va operatorlarning javobgarlikdan qochish holatlari tashkil etadi.

Xalqaro doktrinada bu muammo "Platforma javobgarligi dilemmasi" deb ataladi. Raqamli platformalar o'zlarini shunchaki "neytral texnik vositachi" sifatida talqin qilishi oqibatida eng zaif tomon bo'lgan iste'molchi huquqiy jihatdan himoyasiz qolmoqda. O'zbekistonda "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonun qabul qilingan bo'lsa-da, amaliyotda muayyan bo'shliqlar mavjud. Tadqiqotchi B. Niyazov haqli ravishda ta'kidlaganidek: "amaliyotda raqamli platforma operatorlarining yakuniy mas'uliyati, nizolarni tezkor onlayn hal qilish tizimlari hamda algoritmik risk-menejment modellari to'liq qonuniy yechimini topgani yo'q" [4]. Ushbu holat virtual makonda iste'molchilar huquqlarini tizimli yuridik sanksiyalar zanjiri orqali himoya qilishni huquqiy jihatdan tartibga solishni yanada dolzarb qiladi.

Raqamli maydonchalar va ularning vositachilik immuniteti chegaralari xalqaro huquqiy maktablar tomonidan keng tadqiq qilinmoqda. Xususan, xalqaro tadqiqotchi A. Marsoof "o'zining fundamental ishlarida raqamli platformalarning klassik vositachilik maqomidan chiquvchi konseptual evolyutsiyasini tahlil qiladi" [6]. Uning fikricha, agar platforma shartnoma shartlarini shakllantirish, to'lovlarni qabul qilish yoki logistika zanjirida ishtirok etib, iqtisodiy foyda (komissiya) olsa,

u "neytral vositachi" maqomini yo'qotadi va iste'molchi oldida solidar javobgarlikka tortilishi shart. Shaxsga doir ma'lumotlar daxlsizligi kontekstida fundamental huquqiy doktrina ushbu huquqni ustuvor qadriyat sifatida belgilaydi. "O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonunining 28-moddasida shaxsga doir ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash bo'yicha qat'iy talablar belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra, subyektning rozilgisiz yoki boshqa qonuniy asos mavjud bo'lmagani holda shaxsga doir ma'lumotlarni oshkor etish va tarqatishga yo'l qo'yilmasligi to'g'risida mulkdor va (yoki) operator yoki shaxsga doir ma'lumotlardan foydalanishga ruxsat olgan boshqa shaxs tomonidan rioya etilishi majburiy bo'lgan talab shaxsga doir ma'lumotlarning maxfiyligidir. Ushbu normadan kelib chiqib, mulkdor va (yoki) operator hamda shaxsga doir ma'lumotlardan foydalanishga ruxsat olgan boshqa shaxslar subyektning rozilgisiz shaxsga doir ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga oshkor etmasligi va tarqatmasligi shart qilib belgilangan" [2]. Biroq, amaliyotda platformalar tomonidan qo'llanilayotgan muqobilsiz ofertalar iste'molchilarni o'z ma'lumotlariga ishlov berishga majburlash shakliga aylanib, fuqarolik-huquqiy tenglik prinsipiga zid kelmoqda.

Yana bir muammo – marketpleyslar faoliyatini tartibga solishning protsessual murakkabligidir. Qonunchilikdagi yetishmovchiliklar raqamli platformalar tomonidan subyektiv qoidalar o'rnatilishiga yo'l ochmoqda. Ushbu muammoni tahlil qilgan olim K.A. Kocharyan haqli ravishda ta'kidlaydi: "konkret qonunchilik mexanizmlarining mavjud emasligi marketpleyslarning o'z ichki qoidalarini o'zlari belgilashiga olib keldi, bu esa iste'molchilar uchun kutilmagan murakkabliklar va huquqiy noaniqliklarni yuzaga keltirmoqda" [7]. Muallif ommaviy oferta shartlarining bir tomonlama tuzilishi tufayli iste'molchi va sotuvchilar huquqlari buzilayotganini hamda an'anaviy sud xarajatlari onlayn tranzaksiyalar uchun iqtisodiy jihatdan asossizligini isbotlaydi. Olim ushbu inqirozni bartaraf etish uchun neyron tarmoqlar va raqamli mediatsiyaga asoslangan muqobil onlayn nizolarni hal qilish (ODR) tizimlarini qonunchilikda imperativ belgilash konsepsiyasini ilgari suradi.

Tadqiqotning metodologik arxitekturasini tizimli-huquqiy, qiyosiy-huquqiy ekspertiza, empirik, sotsiologik, induksiya, deduksiya va huquqiy modellashtirish metodlari tashkil etadi. Tadqiqot davomida elektron tijorat sohasidagi xalqaro huquqiy standartlar, xususan “BMTning Xalqaro savdo huquqi bo'yicha komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan UNCITRAL model qonunlari” [8] hamda “Yevropa Ittifoqining raqamli inqilob deb baholangan Digital Services Act (DSA, 2022) qonunchilik hujjatlari sinchiklab o'rganildi va milliy qonunchilikka implementatsiya qilish imkoniyatlari baholandi” [7]. Milliy darajada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Fuqarolik kodeksi, “Elektron tijorat to'g'risida”gi hamda “Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi qonunlararo kolliziyalar yuridik ekspertizadan o'tkazildi. Empirik material sifatida AQSh sud pretsedentlari, xorijiy nazorat organlarining hisobotlari va O'zbekiston Raqobat qo'mitasining statistik ma'lumotlari qiyosiy tahlil qilindi.

Xalqaro huquqiy va korporativ amaliyotda raqamli platformalarning iste'molchilar xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan risk-menejment tizimlari mazmunan ikki qutbga bo'linadi:

A. Amazon (AQSh): Proaktiv risk-menejment va algoritmik xavfsizlik modeli. Amazon korporatsiyasi uchinchi tomon sotuvchilari ulushi 60 foizdan ortiq bo'lishiga qaramay, proaktiv choralarni qo'llaydi. “Xususan, platformada 'A-to-z Guarantee' instituti joriy etilgan bo'lib, unga ko'ra iste'molchi nuqsonli yoki kontrafakt tovar haqida da'vo kiritgan taqdirda, sotuvchi 48 soat ichida muammoni hal etmasa, Amazon nizoni o'z zimmasiga oladi va qisqa muddatda pulni iste'molchiga qaytarish mexanizmini amalga oshiradi” [10]. Ushbu pretsedent elektron savdo maydonchalarining to'g'ridan-to'g'ri moddiy mas'uliyatini ta'minlashda muhim xalqaro namuna hisoblanadi. Bundan tashqari, "Project Zero" kabi sun'iy intellekt tizimlari kontrafakt mahsulotlarni avtomatik tarzda bloklaydi. Rivojlangan davlatlar sud amaliyotida ham platformalarning fuqarolik-huquqiy javobgarligini kuchaytirish bo'yicha barqaror pretsedentlar shakllanmoqda. “AQSh sud amaliyotida ham mazkur yondashuv huquqiy jihatdan mustahkamlandi: Loomis v. Amazon.com LLC (2021) ishi bo'yicha Kaliforniya apellyatsiya sudi

Amazon korporatsiyasini shunchaki ma'lumot uzatuvchi passiv vositachi emas, barcha munosabatlarni nazorat qiluvchi tovar tarqatish zanjirining vertikal bo'g'ini deb topdi hamda platformaning mahsulot nuqsonlari uchun javobgarligini ta'minladi" [11]. Mazkur pretsedent biz tomondan milliy qonunchilikka taklif etilayotgan solidar javobgarlik normalari konsepsiyasini doktrinal jihatdan mustahkamlaydi.

B. Wildberries (MDH): Reaktiv risk-model va ma'muriy sanksiyalar. Wildberries platformasi asosan markazlashgan, reaktiv (muammo yuzaga kelgandan keyin harakat qiluvchi) tizimga ega. Kompaniyaning risk-menejment strategiyasi xalqaro standartlarga mos kelmaydi va faqat davlat organlarining qat'iy ma'muriy bosimidan keyingina o'zgaradi. Bunga yaqqol misol qilib, platforma tomonidan uzoq vaqt davomida nosoz yoki noto'g'ri yuborilgan tovarlarni qaytarish uchun ham iste'molchilardan "logistika to'lovi" nomi ostida asossiz pul mablag'lari ushlab qolinishini ko'rsatish mumkin. Mazkur amaliyot faqat iste'molchilar huquqini himoya qiluvchi davlat organlarining ta'sir choralaridan keyingina qisman bekor qilindi, bu esa tizimning ichki iste'molchi himoyasi filtrlarining zaifligidan dalolat beradi.

Uzum Market ekotizimining huquqiy va risk-menejment modeli. O'zbekiston elektron tijorat bozorida o'tish davri modelini namoyish etayotgan va yiliga o'rtacha 35% lik dinamik o'sish ko'rsatkichiga ega Uzum Market ekotizimi o'ziga xos gibridd mexanizmni shakllantirdi. Kompaniyaning amaliy risk-menejment tizimi milliy qonunchilik normalariga quyidagicha muvofiqlashtirilgan:

1. *Ma'lumotlar xavfsizligi va lokalizatsiya:* Virtual makonda iste'molchilar huquqlarini ta'minlash faqat iqtisodiy bitimlar bilan cheklanmay, balki kiberxavfsizlik va shaxsiy daxlsizlikni himoya qilishni ham qamrab oladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonunining 27¹-moddasi talablariga qat'iy rioya qilgan holda, elektron tijorat operatorlari foydalanuvchilarning shaxsga doir ma'lumotlari va shaxsiy identifikatorlariga raqamli muhitda ishlov berishda ularning mamlakat hududidagi texnik vositalarda lokalizatsiya qilinishini ta'minlashi shart". Ushbu majburiyat

transmilliy platformalar va mahalliy marketplace'lar zimmasiga iste'molchilarning raqamli profillarini xavfsiz saqlash va ma'lumotlar sizib chiqishining oldini olish bo'yicha jiddiy huquqiy mas'uliyat yuklaydi. Shu bilan birga, "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonun normalari doirasida axborot xavfsizligi va to'lov tizimlari rekvizitlarining muhofazasi elektron tijorat ishtirokchilarining asosiy majburiyatlari sirasiga kiradi.

2. *Sotuvchilarni tekshirish*: Platformada faoliyat boshlamoqchi bo'lgan har bir tadbirkorlik subyekti dastlabki huquqiy va soliq filtrlash jarayonidan o'tkaziladi.

3. *Uzum FBO (Fulfillment by Operator) tizimi*: Platforma an'anaviy marketplace'lardan farqli ravishda tovarlarni qabul qilish, logistika va omborda saqlash jarayonlarini o'z zimmasiga oladi. Bu esa tovar sifati ustidan jismoniy nazorat o'rnatish imkonini beradi. Biroq, bu ijobiy infratuzilmaga qaramay, Uzum Market platformasining ommaviy ofertasi (foydalanuvchi bitimi) yuridik jihatdan tahlil qilinganda, platforma operatori tovarning yashirin nuqsonlari, intellektual mulk huquqlarining buzilishi yoki kontrafakt uchun barcha fuqarolik-huquqiy javobgarlikni to'liq sotuvchi zimmasiga yuklab, o'zini "neytral vositachi" maqomida saqlab qolishga urinayotgani ko'rinadi. Bu esa iste'molchi bilan nizo yuzaga kelganda protsessual isbotlash yukini to'liq fuqaroning zimmasiga qoldirmoqda.

O'tkazilgan tadqiqotlar raqamli bozor subyektlarining risk-menejment tizimlarida jiddiy disbalans mavjudligini ko'rsatdi. Platformalarning qiyosiy tahlili quyidagi konseptual farqlarni aniqladi:

Iste'molchi himoyasi va huquqiy maqom. Amazon modeli AQSh sud pretsedentlari asosan operatorning solidar javobgarligini va A-to-z kafolati orqali zararni zudlik bilan qoplashni ta'minlaydi. Wildberries va Uzum Market platformalari esa amaldagi qonunchilik hamda ichki shartnomalar (oferta) vositasida o'z mas'uliyatlarini cheklab, shunchaki "vositachi" maqomini saqlashga urinadi. Wildberries tizimida iste'molchi himoyasi asosan ma'muriy jarimalardan so'ng reaktiv shakllansa, Uzum Marketda milliy standartlar doirasida o'rtacha darajada saqlanmoqda.

Texnologik filtrlar va ODR infratuzilmasi. Kontrafaktga qarshi kurashda Amazon sun'iy intellekt va 24/7 raqamli arbitraj (ODR) tizimidan foydalanadi. Wildberries tizimida onlayn arizalar qisman yo'lga qo'yilgan bo'lsa-da, kontrafakt filtri kuchsiz (shikoyatdan so'ng) ishlaydi. Uzum Market ekotizimida esa kontrafakt nazorati asosan ombor darajasidagi jismoniy-vizual ko'rik bilan cheklangan bo'lib, nizolarni onlayn hal qilish (ODR) infratuzilmasi mavjud emas va muammolar an'anaviy sudlarga yo'naltiriladi.

Normativ muvofiqlik. Amazon YEI DSA va AQSh UCC normalariga to'liq mos keladi. Wildberries korporativ qoidalar ustuvorligiga tayanadi, Uzum Market esa O'RQ-792 qonuni talablariga muvofiq faoliyat yuritib-da, milliy qonunchilik tizimini qat'iy imperativ normalar bilan yanada takomillashtirish zaruratini ko'rsatmoqda.

Milliy qonunchilik normalari huquqiy ekspertizadan o'tkazilganda, raqamli bozor munosabatlarida jiddiy nomutanosibliklar mavjudligi aniqlandi. Xususan, amaldagi Fuqarolik kodeksining 360-moddasiga binoan: "Shartlarini taraflardan biri formulalar yoki boshqa standart shakllarda ta'riflagan hamda ikkinchi taraf faqat taklif qilingan shartnomaga butunlay qo'shilish yo'li bilan qabul qilishi mumkin bo'lgan shartnoma qo'shilish shartnomasi deyiladi" [3]. Bugungi raqamli iqtisodiyotda yirik elektron platformalar ushbu klassik institutdan o'zlarining iqtisodiy va algoritmik ustunligini mustahkamlash hamda bozorda monopolistik xarakter kasb etish maqsadida foydalanmoqda. Iste'molchilar ommaviy oferta matniga amalda hech qanday o'zgartirish kiritmaydi – xaridor yoki barcha shartlarni so'zsiz qabul qilishi, yoki raqamli bozordan butunlay voz kechishi kerak. Bunday sharoitda iste'molchining shartnoma erkinligi prinsiplari qo'pol ravishda buzilayotganligi sababli, platformalar ixtiyorini cheklovchi imperativ huquqiy normalarni joriy etish zarurati yuzaga keladi.

"Elektron tijorat to'g'risida"gi qonunning 12 va 13-moddalarida operatorlar majburiyatlari belgilangan bo'lsa-da, ularning iste'molchi oldidagi yakuniy javobgarlik chegaralari o'ta umumiy xarakterga ega. Bu holat marketpleyslarga tovar sifati bo'yicha javobgarlikni to'liq sotuvchilarga yuklash va o'zlarini

shunchaki "axborot vositachisi" sifatida ko'rsatib, mas'uliyatdan chetda qolish imkonini bermoqda. Raqamli makondagi axborot asimetriyasini bartaraf etish hamda sudlarning yuklamasini kamaytirish uchun qonunchilikka qat'iy imperativ normalarni va platformalar ichida majburiy onlayn nizolarni yechish (ODR) tizimlarini kiritish talab etiladi. Shu munosabat bilan virtual makonda iste'molchilar huquqlarini so'zsiz himoya qilishga qaratilgan uchta muhim o'zgartirish taklif etiladi:

“Elektron tijorat to'g'risida”gi qonunning 13-moddasini to'qqizinchi qism bilan to'ldirish. Unda elektron savdo maydonchasi operatorining sotuvchi bilan solidar javobgarlik instituti joriy etiladi. Unga ko'ra, agar tovar operatorning omboridan qadoqlanib jo'natilgan bo'lsa, to'lov operator tizimlari orqali qabul qilingan bo'lsa yoki iste'molchi e'tiroz bildirgan kundan boshlab 30 kun ichida sotuvchi bilan aloqa o'rnatish imkoni bo'lmasa, operator iste'molchi oldida bevosita moddiy javobgarlikni bo'yniga oladi. Bu qoida marketpleyslarning vositachilik niqobi ostida javobgarlikdan qochish amaliyotiga chek qo'yadi.

Ushbu Qonunga yangi 18¹-moddani qo'shish. Elektron tijoratda nizolarni muqobil onlayn hal etish (ODR) raqamli infratuzilmasini majburiy joriy etish taklif qilinmoqda. Ushbu tizim doirasida BHMning 15 baravarigacha bo'lgan nizolar 15 ish kunida, undan yuqori summali nizolar esa 30 ish kunida avtomatlashtirilgan algoritmlar yoki raqamli mediatsiya tartibida ko'rib chiqilishi shart. ODR tizimini ta'minlamagan operatorlar faoliyati sud tartibida to'xtatib qo'yilishi belgilanyapti.

“Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi qonunning 9-moddasiga beshinchi qism qo'shimcha kiritish. Unga ko'ra, onlayn xarid qilingan tovarning yashirin nuqsonlari yoki kontrafaktligi to'g'risida iste'molchi tomonidan vizual yoki hujjatli dastlabki asoslar keltirilsa, tovarning qonuniyligi va muvofiqligini isbotlash yuki (presumpsiya) to'liq elektron savdo operatori hamda sotuvchi zimmasiga yuklatiladi. Mazkur norma iste'molchini qimmatbaho ekspertizalar o'tkazish majburiyatidan va ortiqcha xarajatlardan xalos qiladi.

Demak, raqamli transformatsiya davrida huquqiy passivlik va reaktiv risk-menejment modellari iste'molchilarning raqamli bozorga bo'lgan umumiy

ishonchini halokatga olib keladi. Xalqaro amaliyot tahlili shuni ko'rsatadiki, Amazon bu muammoni ilg'or sun'iy intellekt texnologiyalari va moliyaviy kafolatlar yordamida proaktiv hal qilgan bo'lsa, Wildberries yirik ma'muriy sanksiyalardan keyingina islohotlar qilishga majbur bo'ldi. Bu – O'zbekiston elektron tijorati uchun eng maqbul strategiya – muammo yuzaga kelganidan keyin chora ko'radigan reaktiv modeldan voz kechib, transchegaraviy standartlarni sintez qilgan proaktiv huquqiy modelni yaratishdir.

Amaldagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida shaxsiy hayot daxlsizligi, shaxsga doir ma'lumotlar himoyasi hamda har bir shaxsning o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish huquqi qat'iy kafolatlangan bo'lib, uning aniq matni quyidagichadir: “Har kim shaxsiy hayotining daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirga ega bo'lish, o'z sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilinishi huquqiga ega. Har kim o'zining shaxsga doir ma'lumotlari himoya qilinishi huquqiga, shuningdek noto'g'ri ma'lumotlarning tuzatilishini, o'zi to'g'risida noqonuniy yo'l bilan to'plangan yoki huquqiy asoslarga ega bo'lmagan ma'lumotlarning yo'q qilinishini talab qilish huquqiga ega” [1]. Konstitutsiyada muhrlangan ushbu shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi va daxlsizligi kafolati hamda biz taklif etayotgan solidar javobgarlik va majburiy ODR (onlayn nizolarni hal etish) tizimi elektron savdo maydonchalarida adolat mezonlarini tiklashning, iste'molchini firibgarlik ko'rinishlaridan jismoniy va raqamli muhitda ishonchli himoya qilishning fundamental huquqiy poydevori bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida: O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 2 iyul O'RQ-547-son Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (Lex.uz). – URL: lex.uz

3. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. I va II qismlar // O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – Toshkent, 2024.Lex.uz

4. Niyazov B. Raqamli platformalar operatorlarining fuqarolik-huquqiy javobgarligi va elektron tijoratni huquqiy tartibga solish istiqbollari // Odil sudlov. – 2023. – № 6. – B. 43-47.

5. Raqobatni rivojlantirish va iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi. Yillik hisobot: iste‘molchilar huquqlari bo‘yicha holat. – Toshkent, 2025.

6. Marsoof, A. The liability of online platforms for intellectual property infringement // International Journal of Law and Information Technology. – 2022. – Vol. 30, Issue 2. – Pp. 117–145. doi.org

7. Gulyaeva, T. B., Kocharyan, K. A., & Bayramova, R. O. Problems of Legal Regulation of the Activities of Marketplaces // Theory and Practice of Social Development. – 2025. – No. 4(1). – Pp. 12–28.

8. UNCITRAL Model Law on Electronic Commerce with Guide to Enactment 1996 with additional article 5 bis as adopted in 1998. – New York: United Nations Publication, 1999. – URL: un.org

9. Regulation (EU) 2022/2065 of the European Parliament and of the Council of 19 October 2022 on a Single Market For Digital Services and amending Directive 2000/31/EC (Digital Services Act) // Official Journal of the European Union. – 2022. – L 277. – Pp. 1–102.

10. Amazon Inc. A-to-z Guarantee Protection Policy for Consumers. – Seattle, WA: Amazon Corporate Legal Publications, 2026. – URL: amazon.com

11. Loomis v. Amazon.com LLC, 63 Cal. App. 5th 466, 277 Cal. Rptr. 3d 769 (2021) // California Courts Official Reports. – URL: justia.com